

**VATAN HIMOYASI – MUQADDAS BURCH**

*Karabaeva Munira Abdullaevna*  
*Jamoat Xavfsizligi universiteti o'qituvchisi,*  
*f.-m.f.n., dots.*

**Annotatsiya:** Kishining tug'ilganda kindik qoni to'kilgan er Vatan i hisoblanadi. Mana shu Vatanini asrab-ardoqlash, himoya qilish har bir insonning muqaddas burchidir. Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas, Yurt qo'riganning yurti buzilmas.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Vatan, yurt, inson, burch, vijdon, tinchlik,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mamlakat mustaqilligini hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilishdagi, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini, shuningdek O'zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalarning 1992 yil 14 yanvardan respublika yurisdiksiyasiga o'tkazilganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993 yilning 29 dekabrda 14 yanvarni Vatan himoyachilari kuni deb belgilashga qaror qilgan.

Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shadan, insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. SHu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga etgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'ziga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog'idagi har bir qarich yer muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo etganlar, qaerga borsa ham vatan yodi bilan nafas olganlar. Yurtimiz insonlari vatanimizdan tashqarida baxt-saodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o'z Vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabati bo'lmagan insonni ota-onasiga mehri bor desalar bunga ishonib bo'lmaydi. Ona vatanimizga sadoqatli bo'lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan baxramandlik, o'ziga ishonch, kelajak oldida ma'sullik tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Barcha ta'lim muassasalari pedagogik jamoasining eng muhim vazifalaridan biri -bu Respublikamiz Qurolli kuchlarining salohiyati va obro'si, mamlakatimiz mustaqilligi hamda xududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini keng yoritib berish, ularni o'z vataniga sodiq va fidoiy insonlar etib tarbiyalashdir.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarda vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik kabi milliy g'oyalarning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish an'anaga aylanib bormoqda. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, bugungi kunda har bir yigit qizning orzusi va burchiga aylanib bormoqda.

Bugungi yoshlarimiz mustaqil vatanimizning posbonlaridir. Biz navqiron avlod vakillarini barkamol, etuk kishilar qilib voyaga etkazsak, ularning har birida or-nomus, milliy g'ururni izchil shakllantirib borsak, vatanimiz shunchalik qudratli davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo'lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg'ularini xis etib yashayotgan yoshlarimiz mustaqil yurtimizning kelajagidir. Biz qo'lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziydi.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu dunyoda er yigitning eng buyuk, ezgu va muqaddas vazifasi, avvalo, o'z oilasi, Vatani va xalqini munosib himoya qilishdan iboratdir.

Armiya va xalq birligini ta'minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tuzilma — harbiy-ma'muriy sektorlar barcha hududlarda samarali faoliyat yuritayotgani tufayli «Armiya va xalq — bir tanu bir jon!» degan olijanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharafligimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Barchamiz bir fikrni yaxshi anglab olishimiz kerak: el-yurtimizning tinchligini ta'minlash maqsadida bugun mudofaa sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning qanchalik samara berishi armiya va xalqning birdamligiga bog'liq".

Vatanni sevish, ardoqlash, himoya qilish har birimizning sharafligimizdir. Vatan himoyasi-muqaddas burch.

Yurtimiz tinch, hayotimiz osoyishta, kunlarimiz yorug', tunlarimiz osuda. Uzoq safarlarga ketib, bir necha kun musofir bo'lsak ham, har kuni ertalab ketib, kechqurun ishdan qaytsak ham, uydagilardan ko'nglimiz xotirjam. Bolalarimiz bog'chaga, maktabga o'zlari borib, o'zlari kelishyapti, ulardan ham ko'nglimiz to'q. Shu o'rinda, tinchlik naqadar ulug' ne'mat ekanini anglab etasan kishi. Haqiqatan ham, tinchlik bebaho ne'mat. Uni saqlamoq, avaylamoq, kerak bo'lsa bu yo'lda jon fido qilish shu zaminda yashayotgan har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Ta'kidlash joizki, osuda hayotimiz, musaffo osmonimiz, aziz bolajonlarimizning quvnoq kulgisi, otalarimizning farovon umr kechirishi yurtimizdagi barqarorlik – tinchlik tufaylidir.

Tinchlikning qadriga etib yashash kerak. Shu aziz Vatan barchamizniki ekan, uni avaylab-asrash ham barchamizning chin farzandlik burchimizdir.

Darhaqiqat, tinchligimiz, osoyishtaligimiz, barakali mehnat qilishimiz, farzandlarimiz o'sib-ulg'ayishlari, komil inson bo'lib etishishlarida, shubhasiz Vatan himoyachilarining o'rni, shijoati va jangovar ruhi beqiyosdir. Yuragida Vatan va xalq sevgisi mustahkam joy olgan, shijoatli o'g'lonlar yurt sarhadlarini sergaklik bilan qo'riqlamoqdalar.

Vatan himoyachisi degani, eng sharafligi va oliy kasb ekanligini yaxshi bilgan yigitlarimiz har tomonlama, jismoniy va ma'naviy jihatlardan loyiq bo'lishlikni yaxshi anglaydilar va shu sifat va xislatlarni egallashga harakat qiladilar, zero ular Vatan himoyasi xayot-mamot masalasi ekanini, ularning turish-turmushi, el-yurt taqdiri shu nuqtada tutashishini anglab etganlar. Ular avvalo o'z ota-onalarini, aka-ukalarini, opa-singillarini himoya qiladilar. O'zlari tug'ilgan shahar, qishloqlarni, qavmu-qarindoshlari, bir so'z bilan aytganda Ona-Vatanni qo'riqlamoqdalar.

Tinchlikni mustahkamlash yo'lida har bir kishi o'z burchini sidqidildan, ixlos va e'tiqod ila bajarmog'i lozim. Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi o'ziga topshirilgan vazifani ulug' mas'uliyat deb bilmog'i va harbiy qasamyodni, va'dalarini bajarishi muhimdir. Vatan himoyasida faqat harbiy kishilar emas, balki shu zaminda yashayotgan barcha fuqarolar - o'qituvchi yoki shifokor bo'ladimi, tadbirkor yoxud xizmatchi bo'ladimi, qaerda bo'lmasin o'z Vatani himoya qilishi kerak. Himoya qilish deganda faqat qurol bilan emas, kerak bo'lsa so'z bilan g'animga raddiya berish bilan, Vatanga tosh otuvchilar va ig'vogarlarga qarshi kurash yo'llari bilan inson o'z yurtini, millatini, xalqini himoya qilishi zarur. Bu ham iymoniy burchga kiradi.

Ammo, Vatan himoyachisi bo'lish yanada sharafligi burchdir. Kindik qoni to'kilgan vatanni, shu mustaqil yurti ko'z qorachig'idek asrab-avaylash inson uchun go'yo o'z oilasini, sha'nini, nomusini, imon-e'tiqodini himoya qilish kabidir.

Xalqning boshiga og'ir kun kelganda jonini saklash uchun uni tashlab qochish insoniylikka to'g'ri kelmasligi barchaga ma'lum. Xalqimizda "O'zga yurtda shoh bo'lguncha o'z yurtida gado bo'l" degan hikmatli so'z ham bor. O'z huzur halovatini o'ylab, o'zgalarni unutgan kishi hech qachon ona-Vatani, xalqiga nisbatan sadoqatli bo'lolmaydi.

Hakimlar aytadilar: "Kishining vafodorligi uning o'z vatani uchun qayg'urishidan, birodarlarini sog'inishidan va umrining zoe ketkazgan lahzalariga o'kinib yashashidan bilinadi". Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi vatanni himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajada hissa qo'shishi bilan o'lchanadi.

Ona Vatan himoyasi mavzusida soʻz borar ekan, Temur Malik, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulugʻ yurtparvarlar, Vatan ozodligi yoʻlida qoʻlida tigʻ ila jon bergan Shayx Najmiddin Kubro, Vatan hajri va dogʻida yonib oʻtgan Bobur Mirzolar ibрати beixtiyor koʻz oldimizga keladi.

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temurning naqadar buyuk vatanparvar boʻlganliklarini tarix juda yaxshi biladi. Ulugʻlarimiz taʼkidlaganidek: "Millat gʻamida yongan, uning istiqboli va istiqloli yoʻlida fidokorlik koʻrsatib yashagan arbobni kelajak va tarix hech qachon unutmaydi. Amir Temur ana shunday tarixiy va unutilmas shaxsdir".

Bizlar oʻz farzandlarimizga ana shu ulugʻlar yoʻlini ularning ona Vatan himoyasi va manfaati yoʻlida koʻrsatgan buyuk jasoratlari va sadoqatlarini anglatmogʻimiz lozim. Shundagina ularning dilidan Vatanga muhabbat tuygʻulari, yurtni tashqi kuchlar xurujidan hamisha himoya qilish hissi mustahkam oʻrin oladi. Ona Vatanni sevish tufayli dunyo obod boʻladi.

Vatan himoyasi barchamizning muqaddas burchimiz! Aziz Yurtimizda istiqlol bergan ulkan imkoniyatlar haqida soʻzlasak, shuncha oz.

Hayotimizga beqiyos maʼno va mazmun olib kirgan tinchlik deya atalmish bebaho ilohiy neʼmatlarning qadriga etish, ularga shukur qilish, uni asrab-avaylash barchamizning burch va vazifamizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yagonasan, muqaddassan Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, goʻzal Oʻzbekistonim! Uslubiy qoʻllanma. Toshkent. "Maʼnaviyat" 2014.
2. Biz nechun sevamiz, Oʻzbekistonni. Madaniyat 5 oktyabr. 2020 y.